



THE INTERRELATION OF FREEDOM AND RESPONSIBILITY AND THEIR ROLE IN SPIRITUAL DEVELOPMENT

Gulshoda Mixliyeva

Lecturer at Karshi State Technical University
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: freedom, responsibility, spirituality, society, development, well-rounded individual.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article analyzes the interconnection between the concepts of freedom and responsibility, as well as the views of scholars from different eras on these ideas. It also examines the role of freedom and responsibility in the development of societal spirituality and in the upbringing of a well-rounded individual.

ERKINLIK VA MA'SULIYAT TUSHUNCHALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI VA MA'NAVIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Gulshoda Mixliyeva

Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zi: Erkinlik, mas'uliyat, ma'naviyat, jamiyat, rivojlanish, barkamol shaxs.

Аннотация: Ushbu maqolada erkinlik tushunchasining ma'suliyat tushunchasi bilan bog'liqlik jihatlari, erkinlik va ma'suliyat haqida turli davrlardagi olimlar qarashlari tahlil qilingan. Bundan tashqari erkinlik va ma'suliyatni jamiyatda ma'naviyat rivojlanishidagi roli va barkamol shaxsnii tarbiyalashdagi o'rni haqida o'rganilgan.

СВОБОДА И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ: ИХ ВЗАИМОСВЯЗЬ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОСТИ

Гульшода Михлиева

Преподаватель

Каршинского государственного технического университета
Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: свобода, ответственность, духовность, общество, развитие, всесторонне развитая личность.

Аннотация: В данной статье анализируются аспекты взаимосвязи понятий свободы и ответственности, а также взгляды ученых разных эпох на данные понятия. Кроме того, рассматривается роль свободы и ответственности в развитии духовности общества и в воспитании всесторонне развитой личности.

Kirish.

Necha ming yillar mobaynida insoniyat erkinlikka, ozodlikka intilib kelgan. Erkinlik uchun kurashish yo‘lida qanchadan-qancha qonli urushlar, xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lgan. Ko’plab mutafakkirlar, olim-u ulamolar, badiiy ijod namoyandalari komil insonni tarbiyalash, erkin jamiyatni qanday qurish to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirganlar. Inson erkinligi, birinchi navbatda, odamlar yer yuzidagi boshqa turlarga qaraganda yaxshiroq bo‘lgan qobilyatni amalga oshirishi demakdir.

Asosiy qism.

Tarixiy davrlardan erkinlik masalasini o‘rganish insonlarga qiziqish uyg‘otgan va har bir davrda erkinlik masalasiga turlicha yechim topilgan. Erkinlik masalasi ibtidoiy jamiyatda odamlarni o‘z urug‘iga tegishli ekanligini bildirgan bo‘lsa, industrial va postindustrial jamiyatda esa erkinlik masalasiga inson o‘zi ustidan va mehnat faoliyati ustidan o‘zi hukumronlik qilishi va boshqa shaxs yoki hukumron tabaqani, davlatni aralashuviga yo‘l qo‘ylmasligi tushinilgan. Yillar davomida erkinlik masalasi, unga bo‘lgan qarashlar va qiziqishlar oshib bordi.

Bugungi kunda erkinlik shunchaki insonlar o‘zi xoxlagan ishni to‘silarsiz, qarshiliklarsiz qilish degan bir yoqlama fikrdan uzoqlashildi va erkinlik mas’uliyatni namoyon etishi targ‘ib qilindi. Xususan keng ma’noda erkinlik – bu o‘zi xohlagan narsani qiladigan, har qanday begona cheklovlardan mustaqil ravishda o‘z xatti-harakatlarini boshqaradigan shaxsning holati tushiniladi. Bunday sub’yekt o‘z harakatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi va ular uchun javobgarlik g‘oyasini anglatadi. Erkinlik nafaqat shaxsning tanlash, yaratish imkoniyati borligini, bu borada sun`iy cheklovnning yo‘qligini, shuningdek u o‘z xatti-harakatlari oqibatlari uchun javobgar bo‘lishi kerakligini ham anglatadi.

Erkin bo‘lish – aql amriga muvofiq yashashdir. „Erkinlik” atamasiga falsafiy lug‘atlarda odatda shunday izoh beriladi: „Erkinlik”- insonni oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘lida o‘z niyatlarida, xohish-istiklari va manfaatlariga mos tarzda faol harakat qilish qobilyatidir”[1.www.ziyonet.uz].

Erkinlikning yetishmasligi juda og‘riqli tajriba bo‘lib, siyosiy jihatdan eng dolzARB muammolardan biri hisoblanadi. Biz ko‘pincha katta erkinlikdan to‘lib-toshganimizni his qilamiz va aslida undan azob chekamiz. Erkinlik yetuklikni talab qiladi. Erkinlik oshirish omillariga ortirilgan bilim va tajriba muhim hisoblanadi. Islom dinida erkin bo‘lish uchun Olloh tomonidan insonga aql idrok in’om etilgan deyiladi. Inson aql idroki, erkin ongi bilan hayvonlardan farq qiladi. Insonga berilgan aql idrok erkinlikni namoyon etadi va inson o‘z erkidan to‘g‘ri maqsadlarda foydalanadi. Shuning uchun erkin bo‘lish— mas’uliyatli bo‘lish demakdir desak yanglishmagan bo‘amiz.

Darhaqiqat, mas’uliyat deganda u javob berishi va javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi mumkin bo‘lgan harakatlarni erkin bajaradigan shaxsni holati tushiniladi. Erkinlik mas’uliyat bilan birga keladi va Jon –Pol Sartr ta’kidlaganidek, bu qo’rquvni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun biz erkinlikni qadrli deb bilishimiz, uning asosida rivojlanish uchun turli xil shartlarga muhtojmiz va amaliy hayotda mas’uliyatni o‘z zimmamizga olishimiz kerak. Chunki yetuklik va axloqiy me’yorlarsiz erkinlik bo’sh bo‘lib qoladi. Shuning uchun erkinlik va ma’suliyat o’rtasida o’zaro bog’liqlik mavjud. Faqat erkin odamlar sifatida biz mas’uliyatli va mustaqil bo‘lishimiz mumkin. Aksincha, biz avtanomiyani rivojlantirsak va undan foydalana olsak, bizning erkinligimiz boyib boradi.

Erkinlik insonning to’siqlar va cheklovlarini yengib o’tishi uchun tinimsiz harakatlaridadir. Bu bilimlarni zabt etishni o‘z ichiga oladi, shuning uchun biz qanchalik ko‘p bilsak, shunchalik yaxshi harakat qilamiz va erkinroq bo‘lamiz. Bu shuni anglatadiki, inson qanchalik ma’suliyatli bo’lsa, shunchalik erkinroq bo’ladi. Biz ma’suliyat tushinchasiga teranroq fikr aytadigan bo’lsak, “ma’suliyat” tushunchasi ko‘pincha majburiyat kabi tushunchalar bilan bog’liq.

Ma’suliyatli shaxs o‘z zimmasiga vazifalar olishdan cho’chimaydi, qiyinchilik va muammolarni yengib o’tadi. Zimmasidagi vazifalarni halol va vijdonan bajarishga harakat qiladi. O’zini ma’sul va javobgar sifatida his qiladi. Vatanni himoya qilish bu nafaqat burch, balki mas’uliyat hamdir. Yoki ota-onalik vazifasini bajarish ham ulkan ma’suliyat.

Hegel to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Bir jihatdan, mohiyat - e’tibori bilan o‘z oldiga mazmundor maqsad qo‘yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o‘ziga xosligi yo‘qolgan bo‘lur edi” [Vorontsov. V. “Tafakkur gulshani. Toshkent, 1981. 129-bet].

Ishyoqmaslik, dangasalik, qo‘r quoqlik, o‘ziga ishonmaslik kabi tushunchalar irodani zaiflashtiradi. Irodasi zaif inson hayotga yengil-yelpi qaraydi. O‘zi mehnat qilib kun kechirishdan ko‘ra, tayyor mahsulotni qabul qilishni istaydi. Bunday insonlarda ekstremal vaziyatlarda vataniga qarshi holat bo‘lsa-da, oson yo‘lni tanlash hissi kuchli bo‘ladi, iroda

o‘rnini qo‘rquv egallab, o‘z manfaatini o‘ylab ish tutadi. Irodasi zaif insonlarni yo‘ldan ozdirish ham oson kechadi.

Jamiyat a’zolari sifatida biz o‘z erkinligimizni va hayotimizni shakllantiradigan qarorlar qabul qilish qobilyatimizni qadrlashimiz kerak. Rivojlanayotgan jamiyatda erkinlik va ma’suliyat o’rtasida har doim muvozanat bo’lishi kerak. Bu muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki u odamlarning o‘z harakatlari uchun mas’ul bo’lishini va ularning tanlov jamiyatga salbiy ta’sir ko’rsatmasligini ta’mindaydi.

Faylasuf Aristotel “yaxshi hayotga erishish uchun odamlar yaxshi harakat qilishlari kerak va ular o‘z qilmishlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishlari, jamiyatga foyda keltiradigan qarorlar qabul qilishlari kerak” degan fikrlarni bildirgan.

Boshqa tomondan, Jan-Jak Russo “erkinlik eng oliy maqsad va odamlar ularning oqibatlaridan qat’iy nazar qaror qabul qilishga ruxsat berishi kerak” deb hisoblaydi.

Erkinlik va mas’uliyat ba’zida bir –biriga zid keladi. Misol uchun, odamlar o’zlari istagan narsani qilish erkinligiga ega bo’lishini xohlashlari mumkin, lekin ular bu erkinlik bilan birga keladigan mas’uliyatni xohlamasliklari mumkin. Bu mojaro jamiyatda jinoyat ko’payishini keltirib chiqaradi.

Yuqorida aytganimizdek erkinlik va mas’uliyat bir tanganing ikki tomoni bo’lib, birisiz ikkinchisiga ega bo’lib bo’lmaydi. Jamiyat a’zolari sifatida o‘z erkinligimiz va hayotimizni belgilovchi qarorlarni qabul qilish qobilyatimizni qadrlaymiz va erkinlik mas’uliyat bilan birga kelishini ham anglab yetganmiz. Jamiyatda erkinlik va mas’uliyat o’rtasida muvozanat bo’lishi kerak. Bu muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u jamiyat azolarining o‘z harakatlari uchun mas’ul bo’lishini va ularning tanlovi jamiyatga salbiy ta’sir ko’rsatmasligini ta’mindaydi, shu bilan birgalikda jamiyatda ma’naviyat rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda ma’naviyatning rivojlanishi uchun erkinlik o’sishi kerak bo’ladi. Erkinlik bo’lmasa ma’naviyat rivojlanmaydi. Insonlar siyosiy totalitar tuzumda, yoki diniy fanatizmga asoslangan jamiyatda yashasa, erkin fikrlashga qo’rqla, ilm-fan, adabiyot va san’at, madaniyat erkin rivojana olmaydi, qoloq qoidalar, urf-odatlar hukmronlik qiladi. Bunday jamiyatda inson faqat bir tomonlama fikrlab, hamma fikri qaram, tobe bo’ladi. Inson fikrlashdan cheklana boshlaydi.

Misol qilib aytganda, Stalin yoki Gitler siyosatini olsak, erkin fikirlovchi insonlar qamoqqa olingan, qatog’on qilingan, yoki surgun jazosi bilan jazolangan. Bunday siyosatni ko’rgan insonlar erkin fikrlashdan qo’rqishgan. Insonlar ongi, ma’naviyati, bilimi o’smay, jamiyat hayotining ayrim sohalarida rivojlanish ma’lum muddatda to’xtab qolgan.

Jamiyat insonlarga erkinlik bermasa u rivojlanishdan to'xtaydi. Insonlarga vijdon erkinligi berilmasa yoki ijod erkinligi berilmasa jamiyat qanday rivojlanadi? Ijod erkinligi tufayli jamiyatda san'at, adabiyot rivojlanadi, so'z erkinligi tufayli jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlar, davlat idoralari faoliyatida tartib intizom rivojlanadi. So'z erkinligi bo'lmasa, jamiyatda intizomsizlik, hokimiyat vakillarining o'zboshimchaligi, poraxo'rlik avj olib ketadi.

Insonlarda vijdon erkinligi, ijod erkinligi, fikr erkinligi, so'z erkinligi bo'lishi va ularning huquq va erkinliklari kafolatlanganiga o'zлari amin bo'lishlari lozimdir. O'shandagina ular birovga qaram bo'lmaydi, o'z fikrini ochiq aytaladi. Ijod erkinligi, so'z erkinligi, e'tiqod rivojlangan joylarda fikrlar xilma-xilligi va ko'ppartiyaviylik mavjud bo'ladi. Partiyalar o'rtasida davlatni rivojlantirish yuzasidan bahslar bo'ladi, turli xil variantlar yuzaga keladi. Ana shu bahslar asosida haqiqat tug'iladi. Demak erkinlik bu-jamiyatni rivojlantirishning, shu jumladan ma'naviy rivojlantirishning asosiy shartidir.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, erkiniksiz mas'uliyat va mas'uliyatsiz erkinlik bo'lmaydi. Jamiyatda insonning erkinligi qanchalik ko'paysa, uning ma'suliyati ham shunchalik ortib boraveradi. Mas'uliyat eng avvalo zruratni bilib olishdir. Mas'uliyat insondan faollikni talab qiladi.

Jamiyatda yashovchi fuqarolar jamiyat bergen erkinkiklarni to'g'ri anglab yetmasa, o'z imkoniyatlarini suistemol qilishsa, jamiyat yaratib bergen erkinliklarga ma'suliyat bilan yondashishmasa, jamiyat tanazzulga yuz tuta boshlaydi. O'qituvchilar o'quvchilarga dars o'tib, bilim berish mas'uliyatini his etmay, darsni yaxshi o'tmasa, o'quvchilar bilim, ma'naviy rivojlanishi pasayib boraveradi. Shuning uchun ham jamiyatda erkinlikni ko'ngil tusagan ishni qilish, tiyiqsizlik degan bir yoqlama fikrlovchi shaxslarni emas, erkinlik eng avvalo ma'suliyat ekanligini his qila oladigan insonlarni shakllantirishimiz kerak.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. www.ziyonet.uz
2. Vorontsov. V. "Tafakkur gulshani. Toshkent, 1981. 129-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi". Toshkent-2023
4. Abdurashid Abdurahmonov. "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" T:2005 277-b,
5. Abdurahim Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T:2009 389-b
6. Abdurahim Erkayev, 'Zohiriyl va botiniy erkinlik" Tafakkur jurnali 2018.N3 13-b